

AL-FARAXIDI «KITOB AL-AYN» ASARINING AHAMIYATI

Asanova Aydaygul Begali kızı

Berdoq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti talabasi

Abu Abdurahman al Xalil ibn Ahmad ibn Amr ibn Faraxidi o'rta asr arab tilshunosligining mashhur vakillaridan biri. Xalil ibn Ahmed aruz ilm-fani bilan shug'illangan va arab grammatikasini tizimlashtirgan olim. Uning «Al-Aruz», «Kitob ushavohid» (Guvohlar kitobi), «An-Nukat vashshakl» (Mundarija va shakl), «An-Na'gam» (Ovozlar mutanosibliklari), «Bilim olxuruf» (Yordamchi so'zlarning mohiyatlari), «Gaft ulot al-arab» (Arab tilidagi tugallanmagan gaplar), «Al Avomil» (Yuklamalar) va boshqa bir qancha asarlari umumiy tilshunoslikda katta ahamiyatga ega asarlar sanaladi. Olimning faqat «Kitob al-ayn» (Oyna kitobi) asari bizga qadar yetib kelgan¹⁰⁸.

«Kitob al-ayn» asari arab tilidagi eng hajmli va dastlabki izohli lug'at hisoblanadi¹⁰⁹. Asar muallifi Al-Faraxidi bu lug'atni yozishda bugungi kundagi odatiy alifbo shaklidagi lug'at usulini emas, o'zgacha usulni tanlagan. Al-Faraxidi arab alifbosining o'g'zaki nutqiga asoslangan fonetik tizim yaratgan. Bu tizimga ko'ra, so'zlar yozuvdagi shakli jihatdan eng katta harflar bilan boshlanadi, bu xarf ع (ayn) va so'nggi xarf م (mim) bilan tugaydi, chunki mim yozilgan paytda juda kichik ko'rinishda bo'ladi.

Al-Faraxidi «Kitob al-ayn» asarining qo'lyozma nusxasi dastlab Tahiridlar sulolasi kutubxonasida saqlangan bo'lib, u 862 yoki 863-yilda Boshraga qaytarilgan, olim o'limidan yetmish yil o'tgach, shimoli-sharq fors kitob sotuvchisi uni 50 dinarga sotgan. Asarning bir qancha nusxalari tijorat savdosi uchun taklif etilgan. U asarlar o'rta asrlarning ko'p qismida oz sonda qolgan va 914-915-yillarda Andalusda tarqalganiga qaramastan, juda kech 1914-yilda Livan-Iroq monaxi Onastas Al-Karmali tomonidan topilgan va G'arbda takror ko'chirilgan. So'nggi yillarda, kitob Maktab Al-Hilal tomonidan bosmada chop etilgan.

Bu asarning Al-Faraxidi tomonidan yozilgan asl qo'lyozma nusxasi XIV asrga qadar saqlanib qolgan, lekin noma'lum sabablarga bog'liq yo'qolgan. Leksikolog Abu Bakr Al-Zubaydi (989-yilda vafot etgan) tomonidan asarning qisqacha nusxalari XVI asrda Andalusta tarqalgan.

Mahdi Al-Makzumi va Ibrahim Al-Samirayi tomonidan bu asarning 8 jildi alifbo tartibida qaytarilgan tuzilgan. Bu lug'atni 2003 yilda «Dar al-Kitob al-Alamiyya» (دار العلم في الكتاب) degan nom bilan hozirgi arab tilida 4 jildda chop etilgan va uning onlayn varianti ham bor.

¹⁰⁸ Ахведиани В.Г. Арабское языкознание средних веках.//История лингвистических учений: Средневековый Восток. –Москва, 1981.

¹⁰⁹ Абдиназимов Ш. Тил билими тарихи. –Нокис, 2013.

Tarixiy davrlarda, bir qancha olimlar tomonidan bu lug'atning muallifi Al - Faraxidi ekanligiga shakkohlik qilindi. Lekin keyingi ilmiy izlanishlar buning noto'g'ri ekanligin isbotladi, Al-Faraxidi soyasinda qolib ketishdan qo'rqqan odamlar tarafidan paydo etilgan fikrlar ekanligi aytiladi. Bu asar ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Arab tilshunosligidagi ikkinchi keng tarqalgan arabcha lug'at muallifi Ibn Duraidni uning zamondoshi Niftaway Al-Faraxidi asarini plagiat etishda ayblagan.

«Ayn» talaffuzda paydo bo'ladigan eng ichki xarf bo'lgani sababli, uning talaffuzi davrida u teran birinchi tovush, zarurli tovush, tovush va o'zini ifodalash belgisi sifatida ko'rinadi.

Al-Faraxidi lug'atda arab tili fonetikasining tashqi ko'rinishi bilan tanishtiradi. U lug'at uchun qabul qilgan harflar 26 kitobdan iborat bo'lib, har bitta xarf uchun bitta kitob qilib yaratgan, zaif harflarning barchasini bitta kitobga birlashtirgan. Har bitta kitob boblar soni radikallar soniga mos keladi, zaif radikallar oxirda ro'yxatga olingan. Bu tizimga asoslanib so'z o'zagiga anagrammatik yondashadi va radikallarning butkul bo'lishi mumkin bo'lgan anagramlari beriladi.

Asarning I jildi kirish va arab tili o'zak tizimining fonologik qoidalarini qamrab oladi, bunda undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlari, artikulatsiya nuqtasi va umumiy qo'llanilishidagi turli o'zgarishlarning sodir solishiga asoslanib tasnif etilgan. Bundagi maqsad arab tilining to'liq leksik tarkibini ko'rsatish emas, balkim arab tilining keng, umumiy bo'lgan cheksiz so'z boyligini aks ettiruvchi o'zak leksikasini aniqlashdan iborat edi.

Al-Faraxidi tovushlarning yasaliishidagi farqlarga qarab, ularni quyidagicha tasniflaydi :

1. Bo'yin yordamida yasaliadigan tovushlar : Ayn, Ha, Kha, Ha, Ğayn
2. Yumshoq tanglay yordamida yasaliadigan tovushlar : Qaf, Kaf
3. Tish va lab yordamida yasaliadigan tovushlar : Sad, Dad, Jim
4. Tish va til orti yordamida yasaliadigan tovushlar: Shin, Sin, Zay
5. Til oldi va tish yordamida yasaliadigan tovushlar: Ta, Te, Ba
6. Tishlar yordamida yasaliadigan tovushlar : Za, Ze, Yol
7. Til oldi yordamida yasaliadigan tovushlar : Lam, Nun, Ra
8. Og'iz bo'shligi yordamida yasaliadigan tovushlar : Fa, Ba, Mim
9. Kichkina til yordamida yasaliadigan tovushlar : Ya, Uau, Alif, Hamzah.

So'nggi davrlarda yaratilgan barcha leksikografik asarlar Al-Faraxidi lug'atiga asoslangan. Al-Faraxidining «Kitab al-Ayn» asari leksikografiya uchun juda muxim bo'lishi bilan bir qatorda uning shogirdi Sibaveyxidiñ «Al-Kitob» (الكتاب) asarining yaratilishiga tamal bo'ldi. Bu asar arab grammatikasi haqidagi eng bebaho asarlardan biriga aylandi.

Al-Faraxidi «Kitob al-Ayn» leksikografiyasining empirik amaliyotini racionallastirishga harakat etdi, arab tilidagi barcha so'zlarni yakka ko'rsatish uchun tartib va kombinatsiyalarni hisoblashni aniq namoyish etdi. Al-Faraxidi nazariyasiga

binoan, arab tilida narsa butun va aniq bo'lgan bitta tilning fonetik jihatdan paydo bo'ladigan bo'lagidir. O'zaklar so'zlarning turli kombinatsiyalari Al-Faraxidi tomonidan $1 < r < 5$ bilan 1 dan 10 ga qadar bo'lgan betartib turda hisoblanadi, bu tilning imkoniyati, biroq o'zak so'zlarning fonemalari ular o'rtasidagi fonologik hamohanglik qoidalari asosida cheklanadi. Bu cheklovni bitta tilga qo'llash orqali Al-Faraxidi jonli tilni ajratib olish mumkinligini va shunday usulda arab tili leksikasini to'liqi bilan yozib olish mumkin deb hisoblaydi.

Al-Faraxidi fonologik cheklovga asoslangan jonli so'zlashuv tilidan yozma tilini ajratib olishni arab tilshunosligidagi o'zak so'zlarning takrorlanmas kombinatsiyalarini hisoblashdan boshladi, bu $r = 2 - 5$ bilan " R" ga " R" sifatida qabul qililadi. So'ng uni har bitta " R" guruhi uchun permutatsiyalar soni bilan qo'shib oladi. Shu tariqa $Ar^n = r$ paydo bo'ladi, Semit alifbosidagi harflar soni kelib chiqadi. Al-Faraxidi nazariyasi va izlanishlari bugungi kunda ko'pchilik tilshunoslarning asarlarida qo'llaniladi.

Al-Faraxidining «Kitob al-ayn» asari arab tilshunosligi leksikografiya sohasi bo'yicha katta yangilik bo'ldi. Unda arab tili leksikasidagi so'zlar odatiy emas usulda, arab tilining konsonantizmining o'zgarishiga qarab undosh tovushlarning kattasidan kichigiga qaray tartibga solindi. So'zlarning talaffuzidagi tovushlarda turli o'zgarishlar sodir bo'lishiga ahamiyat berildi. Arab tili fonologik tizimining hodisalari, undosh tovushlarning o'z shaklini o'zgartirishi va o'ziga yondoshgan xarf bilan mutunosibligiga diqqat qaratilgan. Arab tilining imkoniyatlari asosida jonli so'zlashuv tilidan yozma tilning farqlarini yoritib berishi bilan ham bu asar umumiy tilshunoslikda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Абдиназимов Ш. Тил билими тарийхи. –Нөкис, Қарақалпақстан, 2013.
2. Ахвледиани В.Г. Арабское языкознание средних веках.//История лингвистических учений: Средневековый Восток. –Москва, 1981.
3. Kees Versteeg. The Arabic linguistic Tradition. –London, 1997.
4. Звегинцев В.А. История арабского языкознания. –Москва, 1958.
5. Звегинцев В.А. История лингвистических учений: Средневековый Восток. – Ленинград, 1981.